

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KAYUMOVA GULSHAN ASROROVNA**

**FRAKTAL PEDAGOGIKA TAMOYILLARI ASOSIDA «KOMPYUTER  
GRAFIKASI» FANINI O‘QITISHNING MODELLARINI VA BAHOLASH  
USULINI ISHLAB CHIQISH**

**05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi.  
Audio va videotexnologiyalar (pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on Pedagogical Sciences**

**Kayumova Gulshan Asrorovna**

Fraktal pedagogika tamoyillari asosida «Kompyuter grafikasi» fanini  
o'qitishda axborot modellarini va baholash usulini ishlab chiqish 5

**Каюмова Гулшан Асроровна**

Разработка информационных моделей и методов оценки в обучении  
«Компьютерной графике» на основе фрактальных педагогических  
принципов 21

**Kayumova Gulshan Asrorovna**

Creating of information models and evaluation methods in teaching  
«Computer graphics» on the basis of fractal pedagogical principles 42

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works 46

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI**  
**DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI**  
**BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**KAYUMOVA GULSHAN ASROROVNA**

**FRAKTAL PEDAGOGIKA TAMOYILLARI ASOSIDA «KOMPYUTER  
GRAFIKASI» FANINI O‘QITISHNING AXBOROT MODELLARI VA  
BAHOLASH USULINI ISHLAB CHIQISH**

**05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi.  
Audio va videotexnologiyalar (pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3303 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti veb-sahifasida (www.tuit.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Beknazarova Saida Safibullayevna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mahmudov Abduhalim Xamidovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Achilova Dilnoza Axmatovna**  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashining 2023-yil «10» mart da soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (267 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «25» fevral kuni tarqatildi.  
(2023-yil «10» fevral dagi 7- raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.M. Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**N.O. Raximov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Sh.A. Anarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlarda grafika fanlar, shu jumladan «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitish samaradorligiga bo'lgan e'tibor hamda multimediali kompyuter texnologiyalari rivojlanishi va globallashtirishga tub o'zgarishlar kiritishi zamonaviy texnika va texnologiyalarni yangi erasini rivojlantirishiga qarab kundan-kunga ortib bormoqda. Jahonning reytingi yuqori oliy ta'lim muassasalarida kompyuter grafikasi ta'limni animatsiyalashtirish va vizuallashtirish, virtual modellar va ularning yaratilishida soha mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, sohada yetuk hamda raqobatbardosh kadrlarni grafik savodxonligini oshirish asosiy masalalardan biridir. Axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan jamiyatda «Kompyuter grafikasi»ning barcha sohalarida ilg'or texnologiyalardan foydalanish muhim omil hisoblanadi. «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishda kreativ ta'lim metodlarini joriy qilish orqali takomillashtirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va talabalar) ning shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishi, tashkil etishi va takomillashtirishi, talabalarning o'z-o'zini shakllantirishida innovatsion va kreativ yondashuvlar asosida o'quv jarayoni tashkil etish muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Jahon miqyosida ta'lim sohasida fraktal pedagogika kabi kreativ yondashuvni amaliyotga keng tadbiiq etish yo'nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ilg'or xorijiy tajribalar asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda fraktal pedagogikaning tamoyillaridan qo'llab o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz oliy ta'lim tizimida «... talim sifatini yaxshilash borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiiq etish jarayonlarini jadallashtirish...» raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va iqtisodiyotning rivojlanishida munosib hissa qo'shishiga, shu jumladan ta'limdagi islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingining birinchi 1000 talikdagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'chimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni shu kabi hukumat qaror va qonunlarida sohalarga tadbiiq etishga vosita sifatida qo'llaniladi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda talabalarni bilim saviyasini rivojlantirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish usuli va uslubiyotini takomillashtirish mazkur dissertatsiyaning dolzarbligini aniqlaydi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar

rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» va IV. «Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash muhim vazifa qilib olingan.

Respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning nazariy va uslubiy asoslari hamda pedagogik texnologiyalarni va o'qitish usullarini takomillashtirish bo'yicha A. Hamraqulov, S. Saydaliyev, F. Zakirova, D. Saidahmedova, N. Azizxo'jayeva, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning motivatsiyasini shakllantirish masalalari Ch. Shokirova, N. Yodgorov, M. Fayziyev va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan. Oliy ta'lim muassasalarining talim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan M. Aripov, U. Begimqulov, A. Hamroqulov, S. Saydaliyev, S. Beknazarova, A. Qahhorov, Sh. Dilshodbekov va boshqalar.

Respublikamizda fraktal pedagogikaning tamoyillaridan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha ishlar olib borilmagan. Respublikamizda fraktallar nazariyasini rivojlantirish bo'yicha B.A. Bondarenko, Sh.A. Nazirov, A.Sh. Anarova, F.M. Nuraliyev, O.M. Narzulloyev va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovor.

Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi davlatlarida ta'lim tizimida o'qitish uslubini va muammoli o'qitish usullarini takomillashtirish, o'qitishning metodik tizimini loyihalash hamda fraktal pedagogikadan foydalanib o'qitish usulini takomillashtirish bo'yicha Ye.M. Tretyakova, O.I. Belyakov, V.A. Bolotov, V.G. Budanov, M.G. Gaponseva, V.V. Gura, V.I. Andreev, M.A. Danilov, V.P. Esipov, M.I. Mahmutov, K. Ya. Bazina, A.S. Belkin, L.B. Abdullina, F.G. Madjuga, I.A. Sinisina va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorij davlatlarida «Kompyuter grafikasi» fani o'quv mazmunini loyihalash, o'qitishni amalga oshirishning innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish muammolari Z. Zuo, L.T. Erig, H.J. Chery, R.L. David va boshqa olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Olib borilgan izlanishlar va tahlillar natijasida o'qitish muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, oliy ta'lim muassasalarida «Kompyuter grafikasi» fanini o'z-o'zini rivojlantirishga asoslanib o'qitishga e'tibor qaratilmagan hamda talabalarni fraktal pedagogikaning tamoyillaridan foydalanib kreativlik, ochiqlik, nochiziqlik, rezonansli ta'sir o'tkazish va reflektiv ta'sir imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi oliy ta'lim muassasalarida fraktal pedagogika tamoyillari asosida o'qitishni takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

**Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bo'g'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy–tadqiqot ishlari rejasining №A-5-026 «Mediaedu.UZ mediata’lim tizimining modellari, algoritmlari va dasturiy kompleksini yaratish» (2015-2017) innovatsion loyihasi, №BA-A5-014 «Murakkab fraktal tuzilishlarni R-funksiya va arifmetik xususiyatlar nazariyasiga asosan analitik bayon etishning avtomatlashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish» (2017-2018) amaliy loyihasi va Ф3-2019081212 «O‘zbek milliy naqshlarida murakkab fraktal tuzilishlarni bayon etishni geometrik modellashtirish texnologiyasini ishlab chiqarish» (2020-2021) innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini fraktal pedagogika elementlari hamda axborot modellari asosida takomillashtirish («Kompyuter grafikasi» fani misolida).

**Tadqiqotning vazifasi:**

fraktal pedagogikaning o‘ziga xos tamoyillari va xususiyatlarini tahlil qilib, mutaxassislik fanlarini o‘qitishda muammoli o‘qitish usulini takomillashtirish («Kompyuter grafikasi» fani misolida);

muammoli o‘qitish usullarini takomillashtiruvchi axborot modellarini loyihalash va ishlab chiqish («Kompyuter grafikasi» fani misolida);

fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan talabalarning bilim darajasini aniqlash algortimini ishlab chiqish va ushbu jarayonni vizuallashtirish;

mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoni, nazorat etish, o‘zlashtirish dinamikasi monitoringini amalga oshirish fraktal xususiyatlariga asoslangan vositani taklif etish («Kompyuter grafikasi» fani misolida).

**Tadqiqot obyekti** Oliy ta’lim muassasalarida muammoli o‘qitish usuli, fraktal yondashuv asosida axborot modellari, bilim darajasini aniqlash algortimi, o‘qitish jarayoni natijasini vizuallashtirish, avtomatlashtirilgan o‘quv axborot tizim.

**Tadqiqotning usullari.** Nazariy, empirik, matematik.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

fraktal tuzilmali o‘qitish jarayonini o‘ziga xos tamoyillari va xususiyatlarining, nazariy va amaliy ko‘nikmalarining adaptivlik darajasiga asoslanib, «Kompyuter grafikasi» fanini o‘qitishning muammoli o‘qitish usuli takomillashtirilgan;

muammoli o‘qitish usullarini takomillashtirishda fraktal pedagogikaning nohiziqlik, refleksiv o‘zaro ta’siri va rezonans ta’sir o‘tkazish tamoyillari asosida axborot modellari ishlab chiqilgan;

«Kompyuter grafikasi» fanini talabalar o‘zlashtirishida testlash metodikasi fraktal uyg‘unlik va ierarxik bilim asosida takomillashtirilgan;

«Kompyuter grafikasi» fani bo‘yicha asosiy tushunchalarning fanlararo fraktal va tashkiliy bazasi, talabalarning o‘zlashtirish natijalarini diagnostika qilish hamda daraxtsimon fraktalga asoslangan bilim chuqurligi va o‘quv faoliyati hajmini aniqlashdagi avtomatlashtirilgan o‘quv axborot tizimi o‘qitish vositasi sifatida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

«Kompyuter grafikasi» fanini ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarni (Geometrik almashtirishlar, Proyeksiyalash va OpenGL grafik kutubxonasi mavzulari misolida) o‘qitishda talabalarning bilim ko‘nikmalari va amaliy ko‘nikmalari

14% ga oshirildi, jamoaviy va o'zaro aloqalar o'rnatib yagona yechimni olishga motivatsiya berildi, tezauruslarni o'zlashtirishda talabalarni mustaqil o'z-o'zini takomillashtirish rivojlantirildi;

«Kompyuter grafikasi» fanini fraktal pedagogika tamoyillaridan foydalanib o'qitishda xalqaro tajribalar o'rganilgan va milliy ta'lim tizimiga mos yutuqlar: o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish o'zlashtirilgan hamda qo'llanilgan;

Oliy ta'lim muassasalarida fraktal pedagogika tamoyillaridan foydalanib o'qitish uchun avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi yaratilib unda talabaning innovatsion o'qitish muhiti sifatida qo'llanilib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining DGU12557, DGU12849, DGU15086, DGU15085, DGU14490 guvohnomalari olingan va o'quv jarayoniga joriy qilingan;

Ta'lim sifati samaradorligini oshirish maqsadida fraktal pedagogik yondashuvdan foydalanib, muammoli o'qitish usulini takomillashtirish bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishga qaratilgan yangi zamonaviy fraktal pedagogika tamoyillariga asoslangan nochiziqlik, refleksiv o'zaro ta'sir va rezonans ta'sir o'tkazish axborot modellari hamda fraktal baholash tizimi joriy etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo'llanilgan yondashuv, tamoyillar, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingan, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plami, Oliy Attestatsiya kommissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining vizual ko'rinishi hamda olingan natijalarning Stydent statistikasiga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitishning muammoli o'qitish usullari takomillashtirilganligi, taklif etilgan axborot modellari ishlab chiqilganligi hamda talabalar o'zlashtirishda testlash metodikasi fraktal uyg'unlik va ierarxik bilim asosida takomillashtirib, asosiy tushunchalarning fanlararo fraktal va tashkiliy bazasi, talabalarining o'zlashtirish natijalarini diagnostika qilish hamda daraxtsimon fraktalga asoslangan bilim chuqurligi va o'quv faoliyati hajmini aniqlashdagi avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi o'qitish vositasi sifatida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mazkur ishda mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy qoidalar va xulosalarning real pedagogik amaliy sharoitlarga moslashishidan iborat. «Kompyuter grafikasi» fani bo'yicha o'qitish jarayonida keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot modellari ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. O'quv jarayonida ta'lim sifatini avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi yaratilib unda talabaning innovatsion o'qitish muhiti sifatida qo'llaniladi hamda Oliy ta'lim muassasalarida o'quv fanlaridan mashg'ulotlarni loyihalash, o'tkazish va baholashda qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** «Kompyuter garfikasi» fanini muammoli o'qitish usulini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy takliflar:

fraktal pedagogika tamoyillaridan foydalanib «Kompyuter grafikasi» fanini muammoli o‘qitish usulini takomillashtirish Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida joriy qilingan. Natijada, mazkur oliy ta’lim muassasalarida «Kompyuter grafikasi» fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qildi;

fraktal pedagogika tamoyillaridan foydalanib mutaxassislik muammoli o‘qitish usulini takomillashtirish Namangan muhandislik-qurilish institutida, Navoiy davlat pedagogika instituti va Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida joriy qilingan. Natijada mazkur o‘quv fani talabalarni o‘z-o‘zini kasbiy va shaxsiy rivojlantirishida, va kasbiy savodxonligini oshirish imkoniyatini yaratildi;

fraktal pedagogika tamoyillari asosida «Kompyuter grafikasi» fanini o‘qitishda axborot modellari va baholash usulini ishlab chiqishga oid takliflar Ф3-2019081212-«O‘zbek milliy naqshlarida murakkab fraktal tuzilishlarni bayon etishni geometrik modellashtirish texnologiyasini ishlab chiqarish» (2020-2021) innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan. Natijada, mazkur oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qildi;

fraktal pedagogika asoslangan axborot modelini ishlab chiqishning aniqlik, nohiziqlik, rezonans ta’sir o‘tkazish va refleksiv o‘zaro ta’sirni amalga oshirish tamoyillariga doir takliflaridan № A-5-026 «Mediaedu.UZ mediata’lim tizimining modellari, algoritmlari va dasturiy kompleksini yaratish» (2015-2017) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan. Natijada, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonlarining axborot-metodik ta’minotini yaratish va ta’lim sifatini oshirish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xorij va 20 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 60 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan 10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan va EHMLar uchun dasturiy mahsulotlarga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tgan 5 ta dastur uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot muammosining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi, vazifalari va obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga

joriy etilganligi, nashr qilingan ishlar va ularning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Fraktal pedagogikaning nazariy asoslari va metodikasi**» deb nomlangan bo'lib, unda ta'lim tizimining fraktal tuzilmali axborot metodik ta'minoti mazmuni tahlil qilingan, fraktallar, ularning turlari va xususiyatlari o'rganilgan, fraktal pedagogikaning nazariy va ta'lim jarayonida qo'llanilishi ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Fraktallarning turlari. Fraktallarning tasnifi bu bilim sohasining avvalgi rivojlanishini sarhisob qiladi va ayni paytda uning rivojlanishidagi yangi bosqichning boshlanishini belgilaydi.

Fraktal tuzilmaviy xarakterga ega bo'lgan qonunlarini aks ettiruvchi tamoyillar to'plamiga quyidagilar kiradi: nochiziqlik, aniqlik, ochiqlik, fraktal uyg'unlik, ierarxik bilim, inson tabiatida bo'lgan hukmronlik va ishonch, rezonansli ta'sir o'tkazish, golografik proyeksiya, reflektiv o'zaro ta'sir, holizm tamoyillari.

Muammoli o'qitish usulini takomillashtirishda o'qitish bosqichlari qismida muamoni yechishda fan bo'yicha (mavzu bo'yicha) kalitli tezauruslarni aniqlash, umumiy funksiyalariga ajratilgan tezauruslarga nisbatan muammoli topshiriqlarni yaratish qismlari alohida ta'kidlangan. Muammoli vaziyat belgilarida muammoli o'qitish usulining texnologiyasiga shakllangan bilimlarni o'zlashtirilganligini nazorat etish va vizuallashtirish, darajalariga esa ajratilgan tezauruslarni o'zlashtirsa (60%) minimal darajada bilimga ega bo'lishi, vizuallashtirishda tanlangan fraktal shaklning rangi bilan faqrlanishi, tezauruslarni o'zlashtirishi hamda shakllangan bilimlarini hamkorlikda muhokama qilishlari takomillashtirish mexanizmi sifatida kiritildi. Zamonaviy o'quv jarayonida o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha fraktal metodikasi, balki muammoli o'qitish usulini takomillashtirish, fraktallarning o'z-o'zini rivojlantirish va bu jarayon amalga oshiriladigan muhit tasnifi ham ishlab chiqildi.





Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Fraktal pedagogikada qo'llaniladigan ta'lim modellari va texnologiyalari**» deb nomlangan bo'lib, zamonaviy o'quv jarayonini takomillashtirishda pedagogning shaxsiy va kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning fraktal metodikasi, fraktal pedagogikaning nochiziqlik tamoyilini qo'llash ta'lim texnologiyasi, fraktal pedagogikaning reflektiv o'zaro ta'sir tamoyili va fraktal-rezonans yondashuv asosida ta'lim jarayonini modellashtirish asosida ishlab chiqilgan axborot modellaridan va talabalarning bilim darajasini fraktal pedagogika tamoyillari asosida baholash usulidan foydalanib, Oliy ta'lim muassalarida «Kompyuter grafikasi» fanini o'qitish metodikasi takomillashtirildi.

Muammoli o'qitishning explanation-stimulation usulini takomillashtirish maqsadida fraktal pedagogikaning nochiziqlik tamoyilining axborot modelini ishlab chiqish jarayoni keltiriladi. Explanation-stimulation usulini takomillashtirish mutaxassislik fanlarini o'qitishda fraktal pedagogika elementlaridan foydalanish talabalarga fanni o'zlashtirishida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Explanation-stimulation o'qitish usuli talabalarni qidirish xususiyatidagi mustaqil harakatlarga explanation va stimulation usullarining kombinatsiyasi. O'quv materialini qisman o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi va qisman talabalarga muammoli topshiriqlar, savollar, yangi bilimlarni kashf qilish orqali mustaqil

o‘zlashtirish uchun topshiriqlar shaklida beriladi. Shu o‘rinda ushbu o‘qitish usulini takomillashtirishda «Kompyuter grafikasi» fanining «Geometrik almashtirishlar» mavzusini o‘zlashtirishda fraktal pedagogikaning nochiziqlik tamoyilini qo‘llangan holda o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi.

1-jadval

**Nochiziqlik tamoyilining axborot modeli**

	<p>Fanning asosiy bo‘limi daraxtsimon fraktalning ildizi sifatida qabul qilinadi.</p>
	<p>Asosiy qismni bo‘limlarga bo‘lish orqali talabalarga yangi bilimlar yetkaziladi.</p>
	<p>Rivojlanish yo‘llarining ko‘pligini 1ta‘minlanadi. Talabalar bilim saviyasini inobatga olinadi. (SWOT va aqliy hujum usuli)</p>
	<p>Mavzu mustahkamlanadi. Topshiriqlar yechimlarini topish uchun tushuncha beriladi va kutiladi.</p>
	<p>Berilgan topshiriqlar yechimi yana 2 usulda tushuntiriladi. (baliq sekleti usuli)</p>
	<p>O‘qituvchining maqsadiga mos keladigan va mos kelmaydigan qismlari ko‘rib chiqiladi. Mavzu fanlararo aloqalari va kasbiy faoliyatiga bog‘langanadi.</p>





Muammoli o‘qitishning dasturlashtirilgan topshiriqlar usuli ta’lim beruvchi tomonidan dasturlashtirilgan topshiriqlar tizimini qo‘yish bilan ifodalanadi. Dasturlashtirilgan topshiriqlar alohida elementlar bo‘lib, ularning har biri o‘rganilayotgan o‘quv materialining ma’lum bir qismini o‘z ichiga oladi. Savol-javob shaklida yoki yangi mashqlar va topshiriqlar shaklida taqdim etiladi.

Muammoli o‘qitishning dasturlashtirilgan topshiriqlar usulini takomillashtirishda reflektiv o‘zaro ta’sir tamoyilining axborot modelidan foydalanish orqali ta’lim oluvchilar an’anaviy tafakkurdan uzoqlashib, o‘quv fanlarini yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Ta’lim beruvchining vazifasi talabalarning reflektiv faoliyatini faollashtirish, o‘z xulq-atvoriga chetdan nazar solishga o‘rgatish hamda talabalarning bilishga nisbatan motivatsiyalarini kuchaytirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish istiqbollarini ko‘ra olishga o‘rgatishdir.

Muammoli o‘qitishning dasturlashtirilgan topshiriqlar usulini takomillashtirishda fraktal pedagogikaning reflektiv o‘zaro ta’sir tamoyiliga asoslangan axborot modelini qo‘llash orqali ta’lim dasturi mazmunining tanlangan kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha talab qilinadigan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishida, o‘z-o‘zini tashkil etishi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasida ijodiy va kreativ yondashuv, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi ishonch munosabatlari, nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish, ta’lim jarayonida ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro hurmat va ta’lim olishda madaniyatini takomillashtirishga asoslangan. Ta’lim jarayoniga fraktal yondashuvdan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini tashkil etishning xususiyatlarini amalga oshiradi.

## 2-jadval

### Refleksiv o‘zaro ta’sir tamoyili axborot modeli

	<p>Fan bo‘yicha nazariy ma’lumot beriladi. Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkazish orqali talabalarning bilim saviyasi aniqlanadi. (SWOT, yelpig`ich usullari)</p>
	<p>Ta’limning individual va guruhli shakllarida tashkillashtirish maqsadida guruhdagi talabalar bilim saviyasiga qarab guruhlari chiqiladi.</p>
	<p>Talabalarning bilim faolligini aks ettiruvchi qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish maqsadida guruhlarga topshiriqlar beriladi.</p>
	<p>Talabalarning bilim faolligini aks ettirish vositalaridan maqbul foydalanishga yo‘naltirish maqsadida har bir guruh bajargan topshiriqlar umumlashtiriladi.</p>
	<p>Talabalarni mustaqil o‘rganishi va boshqa guruh talabalariga mustaqil o‘rgatishi talabalarni mavzuni mustaqil o‘zlashtirishida reflektiv o‘zaro ta’sirni optimallashtirish tamoyilini qo‘llagan hisoblanadi.</p>

Fraktal yondashuv asosida muammoli o'qitish usulini takomillashtirishda muammoli o'qitishning evristik usulidan foydalanildi. Muammoli o'qitishning evristik usulini qo'llashda o'qituvchi talabalar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi. Talabalar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning yechimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani yechish davomida talabalar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi tajribasini egallaydilar.





Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish usulini qo'llashda o'qituvchi va talabalar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi: talabalarga o'quv muammosini tanlangan tezauruslar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida muammoli topshiriq shaklida taklif etish; talabalar bilan individual va kichik guruhlarda tanlangan tezauruslarga asoslangan fan bo'yicha tadqiq etishga undaydigan masalasini taqdim etish; talabalarning ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil etish.

Talaba faoliyatining tuzilmasi: o'quv muammolari tanlangan tezauruslarga asoslangan topshiriqlar mohiyatini anglab olish; tadqiqot muammosini talabalar individual va kichik guruhlarda yechishda faollik ko'rsatishi va lozim bo'lganda o'qituvchidan rezonans olishi; ularni yechishda nazariy ma'lumotlarda taqdim etilgan kalitli tezauruslarga asoslanib, tadqiqotchilik metodini aniqlash va qo'llay olish; nazariy ma'lumotlarda taqdim etilgan kalitli tezauruslarga asoslanib, tadqiqiy masalalarni yechish usullarini o'zlashtirish.

### 3-jadval

#### Fraktal pedagogikaning rezonansli ta'sir o'tkazish tamoyilini fraktal grafikaning rekursiv algoritmi yordamida axborot modeli

$k$ – guruhdagi talabalar soni soni $k=2,3,4,\dots$ ; $a$ - tezauruslar soni; $n$ - qadamlar soni; $m$ – topshiriqlar soni; $t$ – topshiriqlarni bajargan umumiy vaqti; $t_1, t_2 \dots t_m$ – har bir topshiriqni o'zlashtirish uchun berilgan vaqt		
 <p><math>n=0, k=3, t=40\%</math> Nazariy malumotlarni berish (SWOT usuli)</p>	 <p><math>n=1, k=3, t=5\%</math> Mavzuni mustahkamlash, mavzu yuzasida tezauruslarni aniqlash (3/3, 4/4, 5/5 usuli)</p>	 <p><math>n=2, k=3, t=10\%</math> Ma'ruza mashg'ulotini amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga bog'lash (paradox usuli)</p>
 <p><math>n=3, k=3, t=10\%</math> Hamkorlikda ishlash</p>	 <p><math>n=4, k=3, t=10\%</math> Bajarilgan topshiriqlarni testlash</p>	 <p><math>n=m, k=3, t=5\%</math> Mavzu doirasidagi tezauruslarni to'liq o'zlashtirish</p>

Taqdim etilgan modellarda quyidagi tushunchalarni o'z tabiati va funksiyalari bo'yicha tizimni shakllantirish deb hisoblaymiz: bog'liqlik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, differentsiatsiya va integratsiya, ierarxiya, ta'lim kontekstlari, fraktal asoslar va fraktal tamoyillar, mantiq va o'z-o'zini boshqarish algoritmi, tashqi va ichki o'z-o'zini affin aks ettirish.

Ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi tizim samaradorligini oshirishning asosiy maqsadi talabalarning o'quv faoliyati va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini sifatini nazorat qilish hamda o'qituvchilarning boshqaruv faoliyatining samaradorligini diagnostika qilish hisoblanadi. Ta'lim sifatini baholash ta'lim jarayoni rivojlantirish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, o'quv jarayoni faoliyatini olib borishi va rivojlanish tendensiyalarini amalga oshirish mexanizmini aniqlashni nazarda tutadi

Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'quv faoliyatini boshqarishni avtomatlashtirishda tartibsizlikning oshishi yoki kamayishi tahliliga asosan talabalarning o'quv faoliyati tezkorligini ta'minlash orqali axborotning umumiy bilimlar bazasiga murojaat qilishi, fanlararo aloqalarni belgalashda fraktal xususiyatlardan foydalanish mumkin. Mutaxassislik fanlararo bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan ta'lim jarayoni talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat etishda fraktal xususiyatlardan foydalanib vizuallashtirish, o'quv fanini o'zlashtirishda kerakli sharoitlarni yaratish, talabalarnig motivatsiyalarni rivojlantirish, o'quv matireallarni mustaqil o'zlashtirishida o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarni o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishga asosan rivojlantirish va muammolarga keng nuqtai-nazardan qarashga yordam beradi.

Ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimining fraktal xususiyatlarga asoslangan talabalarning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish tizimi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- modulli o'quv dasturiga muvofiq o'quv tezaurusiga asoslangan ta'limning axborot modeli;
- talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil qilishning fraktal modeli;
- pedagogik nazorat materiallari;
- o'quv jarayoni bosqichlarini vizuallashtirishning fraktal uyg'unligi;
- talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlarining fraktal xususiyati.

Avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimining bir qismi sifatida foydalanuvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini monitoring tizimini takomillashtirish va fraktal xususiyatlarga asoslangan vizual ko'rinishini qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Boshqarish tizimi fraktallarning o'z-o'ziga o'xshashligi va o'zgarmasning saqlanishiga asoslangan. Fraktallarni qo'llash orqali fanning o'rganilayotgan modullari fanlararo aloqalar darajasi va chuqurligini aniqlash imkonini beradi.

Ta'lim mazmunining barcha tarkibiy elementlarini hosil qilishning barcha qismlarida o'ziga o'xshashligini aks ettiruvchi, tashkil etuvchi va rivojlantiruvchi deb hisoblash mumkin. Fraktal to'plam bilan fanning asosiy tushunchalarni aniqlash, masalan, Pifagor daraxti orqali ifodalashda asosiy tushunchalarning bir-biri bilan bog'lanishni geometrik tasvirlash va tushunchalarning bir-biri bilan bog'liqligini vizuallashtirish imkoniyati mavjud.

Fraktal baholashda fanning modullari (mashg'ulotlari) bilimlarini shakllantirish modelida cheklangan miqdordagi iteratsiyalar soni bilan cheklanadi. Ushbu modelda maksimum korib chiqilayotgan ilmiy taqddiqot ishi doirasida 4-qadamgacha olingan va mustaqil bilim olish doirasida ushbu qadamlar soni ko'payishi mumkin. Modelning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$S = A \cup (A_1^1 \cup A_1^2) \cup \{(A_2^1 \cup A_2^2) \cup (A_2^3 \cup A_2^4)\} \cup \{(A_3^1 \cup A_3^2) \cup (A_3^3 \cup A_3^4) \cup (A_3^5 \cup A_3^6) \cup (A_3^7 \cup A_3^8)\} \quad (1)$$

bu yerda  $A$  – fanni o'zlashtirishidagi asosiy tezauruslar;  $A_1^1$  va  $A_1^2$  – birinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan kasbiy tayyorgarlik darajasiga oid tezauruslar;  $A_2^1$  va  $A_2^2$  – ikkinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan fanlararo bog'likligiga mos keladigan tezauruslar;  $A_2^3$  va  $A_2^4$  – ikkinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan kasbiy sohaga mos keladigan tezauruslar;  $A_3^1$  va  $A_3^2$  – uchinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan umumkasbiy fanlararo bog'likligiga mos keladigan tezauruslar;  $A_3^3$  va  $A_3^4$  – uchinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan mutaxassislik fanlararo bog'likligiga mos keladigan tezauruslar;  $A_3^5$  va  $A_3^6$  – uchinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan umumkasbiy sohasiga bog'likligiga mos keladigan tezauruslar;  $A_3^7$  va  $A_3^8$  – uchinchi iteratsiyadan keyin hosil bo'lgan mutaxassislik sohasiga bog'likligiga mos keladigan tezauruslar.

Bundan tashqari talabalar fanlarda mavjud tezauruslarni o'zlashtirish, fanlararo bog'lab nazariy va amaliy ko'nikmalar hosil qilish, fundamental bilimlar asosida fan doirasida egallashi lozim bo'lgan bilimlarni mustahkamlash, fanning keyingi modullariga o'tishda o'zlashtirilgan tezauruslarni yangi moduldagi tezauruslar bilan bo'g'lagan holda o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlarni mutaxassislik sohasida qo'llash ko'nimalarini shakllantirish mumkin. Tezauruslarni o'zlashtirish uchun ruxsat etilgan vaqtni hisobga olgan holda, strukturaning murakkablik darajasi taxminan 1,6 ga teng bo'lgan to'rtinchi bosqichda amalga oshiriladi. Iteratsiya jarayonini bir necha tartiblarga keltirib, o'zlashtirish tarkibining tuzilishini hosil qilish mumkin.

Maxsus fanlarni o'qitishda talabalarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini fraktal pedagogikaga asoslanib baholash algoritmi, o'quv-metodik hamda mezonli-baholovchi bloklarni doimiy va vaqtincha sharoitga moslashtirish asosida yaratiladi. Fan doirasida egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini kasbiy muammolarni hal qilishda tezauruslar bilan ishlash qobiliyatini shakllantirish, tizimning boshqa tushunchalari bilan bo'g'liqliklari va munosabatlarini o'rnatishni anglatadi. Avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimining axborot bloki fanning o'quv materiallarini o'zlashtirishini baholashni fraktal o'lchami  $D$  va  $H$ -Hurst ko'rsatkichi avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi tomonidan avtomatik ravishda hisoblanadi.  $D$ -fraktal o'lchov  $H$ -Hurst ko'rsatkichi bilan oddiy munosabat orqali bo'g'langan:  $D + H = 2$ . Qat'iylik o'lchovini belgilaydigan Hurst indeksini hisoblash fan doirasidagi bilimlarni egallash jarayoni kechishini taxminiy amalga oshirish imkonini beradi.

Hurst ko'rsatkichi  $H$  normalangan diapazon koeffitsiyenti  $\frac{R}{S}$  bilan bog'liq, bu yerda  $R$  – tezauruslarni o'zlashtirish uchun ajratilgan vaqt qatorining diapazoni. Hurst ko'rsatkichini hisoblashdan keyingi bosqich fanning o'quv materiallarini

o'zlashtirish jarayoniga asoslangan bilim, malaka va ko'nikmalarning sinergetik ta'sirini baholashni ishlab chiqish hisoblanadi.


Sinergetik ta'sir quyidagi jihatlarda ifodalanishi mumkin:

- belgilangan vaqt oralig'ida mutaxassislik sohasi bilimlarning strukturaviy elementlarini o'zlashtirish va obyektiv ravishda mavjud bo'lgan yashirin bilim imkoniyatiga erishish;

- mutaxassislik, ilmiy va gumanitar fanlar bo'yicha axborot resurslari bilan ta'minlash, bilim tajribasining mazmuni va tuzilishini soddalashtirish, ilmiy faoliyatini rivojlantirish, talabalarda o'z-o'zini boshqarishni shakllantirish.

Sinergetik ta'sir hajmini baholash texnikasining asosi taqsimotning geometrik tasviridir. Kvadrat atrofida aylana bilan chegaralangan tekislikdagi yopiq to'plam bilim hajmini baholash imkonini beruvchi raqamni ifodalaydi.

Bilim hajmi tasodifiy tarzda rivojlanish sohasiga kiradigan aniq o'zlashtirilgan materialni va shartli o'zlashtirilgan materialni o'z ichiga oladi (1-rasm).



**1-rasm. Sinergetik ta'sirning fraktal modeli**

Aylananing kvadratni o'z ichiga olgan minimal maydon va kvadrat orasidagi har bir darajadagi maydonlarning farqlari yig'indisi sinergetik ta'sir hajmini baholashni anglatadi:

$$E_s = \sum_{i=1,2} (S_{t_1^i} - S_{A_1^i}) + \sum_{i=1,4} (S_{t_2^i} - S_{A_2^i}) + \dots + \sum_{i=1,2^n} (S_{t_n^i} - S_{A_n^i}) \quad (2)$$

bunda aylananing maydoni bitta an'anaviy birlik uchun olingan kvadratning yuzasi orqali hisoblanadi. Masalan, har bir kvadrat kamayish koeffitsiyenti bilan ikkita kvadrat hosil qiladi. Pifagor daraxtining xususiyatlaridan biri shundaki, agar birinchi kvadratning maydoni birga teng bo'lsa, unda har bir darajada kvadratlar maydonlarining yig'indisi ham birga teng bo'ladi.

Fraktal usullar asosida talabalar bilimini avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi orqali baholash bloki quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- asosiy tushunchalarning fanlararo fraktal va tashkiliy bazasi;
- o'zlashtirish jarayonini avtomatlashtirishning axborot modeli kontseptual asosning fraktal tuzilishi bilan muvofiqlashtirilgan o'quv va kognitiv tadqiqot topshiriqlari banki shaklida taqdim etilishi;

- dastur moduli ikkita parametr bo'yicha talabalarining kognitiv faoliyati sifatini individual baholashga qaratilgan: Hurst ko'rsatkichiga asoslangan bilim chuqurligi va o'quv kognitiv faoliyatining sinergetik ta'siri hajmi.

Model topshiriqlarning murakkabligi va hajmini talabaning imkoniyatlari bilan bog'lash va vazifalarni bir necha urinishlarda bajarish imkonini beradi. Topshiriqlar natijalari, urinishlar soni va qancha vaqt sarflanganligi boyicha parametrlari avtomatik ravishda talaba to'g'risidagi ma'lumotlarning jamlanma bankiga

kiritiladi. Barcha turdagi topshiriqlarning bajarilishi fan materiallarining hajmi va chuqurligini maksimal to'liqligini olish imkonini beradi.

Shunday qilib, fan bo'yicha talabalar bilimini o'zlashtirishning fraktal modeli ishlashi asosida faoliyatni baholash texnologiyasi o'quv jarayonining kvalimetriya tizimining samaradorligi, ishonchliligi va haqiqiylikini oshirishga imkon beradi. Fan bo'yicha tezauruslarni o'zlashtirish chuqurligining taklif etilayotgan texnologiyasi o'quv jarayonini boshqarish sifatini hamda samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimining muhim didaktik qiymati shundaki, olingan natijalarning ishonchliligi va axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida fraktal yondashuv sharoitida talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishini baholashning obyektivligidan iborat.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **«Tajriba–sinov ishlarini tashkil etish va uni amalga oshirish metodikasi»** deb nomlangan bo'lib, Oliy ta'lim muassasasida «Kompyuter grafikasi», «Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari», «Chizma geometriya, chizmachilik va muhandislik grafikasi» va «Informatika va axborot texnologiyalari» fanlarini fraktal pedagogika tamoyillari asosida o'qitish bo'yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish hamda talabalarning bilimi, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash, ularning ijodiy bilish faolligini, mustaqil o'rganishga bo'lgan talabni rag'batlantirish darajasini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov natijalari va ularning tahlili bayon qilingan.

Fraktal baholash usuliga asoslangan avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi joriy etilib, unda admin, o'qituvchi va talaba modullari mavjud. Admin moduli quyidagi bloklardan tashkil topgan: dashboard, fakultetlar, guruhlar, fanlar, birlashtirish, dars jadvallari, foydalanuvchilar, talabalar.

2016-2022 yillarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATUda «Kompyuter grafikasi» fanini fraktal pedagogika tamoyillari asosida o'qitish bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimidan Namanagan muhandislik va qurilish institutida «Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari» fani bo'yicha, Islom Karimov nomidagi TDTU «Ta'limda axborot texnologiyalari» va «Chizma geometriya, chizmachilik va muhandislik grafikasi» fanlari bo'yicha va Navoiy davlat pedagogika universitetida «Informatika va axborot texnologiyalari» fani bo'yicha o'quv jarayoniga tatbiq etish asosida nazorat va tajriba-sinov guruhlarida tadqiqot 3 bosqichda olib borildi. Tajriba-sinov ishlarida 411 nafar talabalar ishtirok etdi. Natijalarning haqqoniylikini ta'minlash uchun matematik-statistik metoddan foydalanildi.


«Kompyuter grafikasi», «Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari», «Chizma geometriya, chizmachilik va muhandislik grafikasi» va «Informatika va axborot texnologiyalari» fanlari fraktal pedagogika tamoyillari asosida o'qitish bo'yicha axborot modellari, baholash usuli va avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimi ishlab chiqildi. O'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazishda fraktal pedagogikaning rezonansli ta'sir o'tkazish, nochiziqlik, refleksiv o'zaro ta'sir tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborot modellari va baholash usullari va avtomatlashtirilgan o'quv axborot tizimidan foydalanib o'quv jarayonlari tashkil etildi. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv materiallari, talabalar bilimni baholash uchun topshiriqlar to'plami (test savollari, muammoli va mantiqiy masalalar

